

**RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI
PEDOLOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI**

O‘tbasarova Umida Mexmanovna

*Alfraganus Universiteti olivy ta’lim tashkiloti Pedagogika va
Psixologiya PhD v.b dotsent*

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

*Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti,
Defektalogiya yo’nalishi talabasi*

Islomova Dilnura Farruh qizi

*Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti,
Defektalogiya yo’nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalarni pedagogik-psixologik tashxislash haqida fikr yuritilgan. Rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalarni tashxislash bosqichlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalarni diagnostika qilishda foydalaniladigon tamoyillari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik-psixologik, kompleks, diagnostika, fonematik idrok, somatik, skrining, fenomenologik, differensial, defektolog.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогико-психологическая диагностика детей с отклонениями в развитии. Приведены данные об этапах диагностики детей с нарушениями развития. Представлены также принципы, которые используются для диагностики детей с нарушениями развития.

Ключевые слова: Педагогико-психологический, комплексный, диагностический, фонематическое восприятие, соматический, скрининг, феноменологический, дифференциальный, дефектолог.

Abstract: This article discusses the pedagogico-psychological diagnosis of children with developmental disabilities. Data on the stages of diagnosis of children with developmental disorders are provided. The principles that are used to diagnose children with developmental disabilities are also presented.

Key words: Pedagogical-psychological, complex, diagnostic, phonemic perception, somatic, screening, phenomenological, differential, defectologist.

Kirish:

Rivojlanishida muammolar bo’lgan bolalarga samarali ta’lim, tarbiya va ijtimoiy moslashuvni yaxshilash uchun ularning rivojlanish imkoniyatlari va xususiyatlarini to’g’ri baholash muhimdir. Ushbu vazifani rivojlanishdagi nuqsonlarni psixologo-pedagogik kompleks diagnostika orqali amalga oshirish mumkin.

Bugungi kunda maxsus ta’lim muassasalarini turli shakllari mavjud bo’lib bolalar puxta saralanish asosida qabul qilinib, O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta’lim dasturlariga muvofiq ishlov beradigan muassasalar bilan birga, reabilitatsiya markazlari, rivojlanadirish markazlari va aralash guruhlar ham tashkil etilgan.

Shuningdek, hozirda maktabgacha ta’lim muassasalarida va umumta’lim mакtablarida psixik va jismoniy rivojlanishida muammolar bo’lgan bolalar mavjud. Ushbu muammolar turlicha bo’lishi mumkin: eshitish, ko’rish, fazoviy-idrok, harakat-tayanch apparatida, fonematik idrokda muammolar, hissiy-irodaviy buzilishlar, nutqiy rivojlanishdagi kamchiliklar, xulq buzilishlari, psixik rivojlanishning sekinlashuvi va somatik sustlik kabi holatlar mavjud.

Rivojlanishdagi nuqsonlarga ega bolalarni tashxislash uch bosqichni o’z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – Skrining: Bu bosqichda bolaning rivojlanishidagi orqada qolish va psixik, jismoniy kamchiliklar aniqlanadi, ammo ularning xususiyatlari va chuqurligi aniq bo’lmaydi.

2. Ikkinci bosqich – Rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxislash: Bu bosqichning maqsadi rivojlanishdagi nuqson turini aniqlashdir. Natijalariga asoslanib, bolaning imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, unga mos keladigan ta’lim muassasasi va pedagogik yondashuvni belgilash mumkin.

3. Uchinchi bosqich – Fenomenologik boshqich: Bu bosqichda bolaning individual xususiyatlari, tafakkur faoliyati, hissiy-irodaviy doira, ishchanlik qobiliyati va shaxsiyati o’rganiladi va uning individual rivojlanishi uchun maxsus shart-sharoitlar yaratiladi.

Rivojlanishdagi nuqsonlar bilan bog’liq psixologo-pedagogik diagnostikaning samarali amalga oshirilishi uchun “Rivojlanishdagi nuqson” tushunchasini chuqr tushunish zarur.

Rivojlanishida muammolari bo’lgan bolalarni tashxislashda mutaxassislar (L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovskiy, S.D.Zabramnaya) tomonidan belgilangan bir qator tamoyillarga amal qilish muhimdir.

Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalarni tashxislashning asosiy tamoyillaridan biri:

- Kompleks yondashuv: Bu yondashuv bolaning rivojlanish xususiyatlarini barcha mutaxassislar (vrach, defektolog, psixolog) tomonidan ko’rib chiqishni taqozo etadi. Bu usulda bolani nafaqat bilim olish faolligida, balki xulqi, hissiy-irodasi, ko’rish, eshitish, harakat sferasi, nevrologik holati va somatik holati ham baholanadi. Barcha tibbiy va psixologo-pedagogik tekshiruvlar tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi.

• Har tomonlama va to’liq o’rganish tamoyili: Ushbu tamoyil bolaning bilish faoliyati, hissiy-irodaviy doirasi va xulqini tekshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, bolalarning aqliy qobiliyatlariga ta’sir qiluvchi jismoniy rivojlanish ham hisobga olinadi. Agar bolani faoliyat jarayonida, masalan, o’qish, mehnat yoki o’yin faoliyatlarida to’liq o’rganish amalga oshirilsa, bu muvaffaqiyatlari bo’lishi mumkin.

• Dinamik o’rganish tamoyili: Bu tamoyilga ko’ra, bolani tekshirish jarayonida uning bilim darajasi va vazifalarni bajarishdagi imkoniyatlariga ahamiyat berish kerak. L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonası” nazariyasi bo’yicha bolaning aqliy rivojlanishi yuqori bo’lsa, u yangi vaziyatlarda olingan tajribani muvaffaqiyatlari qo’llashga qodir bo’ladi.

Bolani erta tashxis qilib o’rganishning asosiy afzalligi shundaki, vaqtida korreksion ta’limga yo’naltirish orqali ikkilamchi muammolarni oldini olish mumkin.

Rivojlanishida muammolari bo’lgan bolalarni pedagogik tekshirish usullariga quyidagilar kiradi:

• Kuzatish metodi: Bu usulda bolalar tabiiy muhitda, masalan, mакtabda yoki uyda, xatti-harakatlarini va faoliyatlarini kuzatish orqali ularning kundalik hayotidagi muammolar aniqlanadi.

• Suhbat metodi: Bu usul bolalar bilan muloqot qilish orqali ularning fikrlari, his-tuyg’ulari va qiziqishlarini aniqlashga yordam beradi.

• Diagnostik o’yinlar metodi: Bu metod bolalarning kognitiv va emotsiyal rivojlanishini tahlil qilish uchun ishlataladi. O’yinlar orqali bolalarning qobiliyatları va o’rganish usullari tushuniladi.

• Anketalar va so’rovnama metodi: Bu metod yordamida bolalar va ularning ota-onalari uchun anketalar va so’rovnomalar tuzilib, bolalarning rivojlanishidagi muammolar aniqlanadi.

• Guruh faoliyatlarini baholash metodi: Bu metod bolalarni guruh faoliyatlariga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy va muloqot ko’nikmalarini baholaydi.

Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalarni psixodiagnostika qilish 3 bosqichda olib boriladi:

1. Skrining-tashxis;
2. Differensial tashxis;
3. Individual-korreksion dastur ishlab chiqish.

Har bir bosqichning o’ziga xos vazifalari mavjud:

- Skrining-tashxis

Asosiy maqsad psixologik rivojlanish davridagi turli nuqson va kamchiliklarga ega bolalarni erta aniqlash, shu bilan birga bola rivojlanishidagi psixologo-pedagogik muammolarni aniqlash va ularga umumta’lim muassasalarida sharoitlar yaratishdir. Bundan tashqari, skrining-tashxis ta’lim muassasalaridagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga sifatli baholashga yordam beradi.

- Differensial tashxis

Rivojlanish nuqsonlarini aniqlab, bola imkoniyatlariga mos ta'lim shakllarini belgilaydi. Bu bosqichda quyidagi vazifalar bajariladi:

- Bola rivojlanishidagi aqliy, nutqiy va hissiy nuqsonlar xususiyatlarini aniqlash;

- Harakat-tayanch apparati, ko'ruv va eshituv nuqsonlarida psixik rivojlanish xususiyatlariga baho berish;

- Pedagogik tashxisni aniqlash va uni asoslash.

- Individual-korreksion dastur

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim dasturini ishlab chiqish. Ushbu dastur oila ichki munosabatlarini o'rganish, tarbiya sharoitlarini aniqlash va murakkab o'qish sharoitlarida yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytsak bo'ladiki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik diagnostika qilish ularning individual xususiyatlarini aniqlash va samarali ta'lim-tarbiyani tashkil etishda ahamiyati katta. Maxsus metod va texnikalar yordamida olib boriladigan bu jarayon bolalarning kamchiliklarini erta bosqichda aniqlash va ularga mos ta'lim shakllarini ishlab chiqishga qo'l kelishini bilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.NURKELDIYEVA PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA (Rivojlanishida nuqsoni bo 'Igan bolalarning pedagogik-psixologik diagnostikasi) VNESHINVESTPROM»2019

2. D.A.NurkeIdiyeva, M.U.Hamidova RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN> BOLALAR DIAGNOSTIKASI Toshkent-2016